**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘zbekiston Respublikasi**
**Energetika vaziri**

_________ **J. Mirzamahmudov**

2024-yil 25 -iyul

**O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligidagi Elektr energiyasini ishlab chiqarish bo`limida mavjud vakant lavozimga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov komissiyasining**
**34-son bayoni**

2024-yil 25 07 Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:** **J. Mirzamahmudov** – Energetika vaziri, Tanlov komissiyasi raisi

**Qatnashganlar:** Vazir o‘rinbosarlari, vazirning rejim va komplayens bo‘yicha maslahatchisi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi vakili, Tanlov komissiyasi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI:**
**O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining Elektr energiyasini ishlab chiqarish bo‘limida mavjud vakant lavozim uchun e’lon qilingan tanlovning suhbat bosqichini o‘tkazish to‘g‘risida**

*(Mirzamahmudov, Mamadaminov, Shukurov, Fayziyev, Mirzamahmudov)*

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) bilan kelishgan holda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi markaziy apparati va tashkiliy tuzilmasidagi tashkilotlarda mavjud vakant lavozimlariga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi” (keyingi o‘rinlarda - Tartib) talablariga muvofiq vazirlik markaziy apparatining **Elektr energiyasini ishlab chiqarish bo‘limi yetakchi mutaxassisi** vakant lavozimiga ishga qabul qilish uchun Agentlikning https://vacancy.argos.uz/ platformasi orqali e’lon qilingan tanlovda 39 ta murojaat kelib tushgan.

Tanlovning 1-bosqichi bo‘yicha nomzodlarning o‘rnatilgan malaka talablariga mosligi tekshirildi, shundan so‘ng, muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar tomonidan tanlovning 2-bosqichida Agentlikda test sinovlari topshirildi.

Tanlovning test sinovlari bosqichidan muvafaqqiyatli o‘tgan 4 (to‘rt) nafar nomzod (S.Tashbayev, A.Massaliyev, Sh.Normatov, S.Saidmurodov) tanlovning suhbat bosqichiga taklif qilindi. Ulardan 2 (ikki) nafari (A.Massaliyev, S.Saidmurodov) suhbatda qatnashdi, qolgan nomzodlar suhbatda sababsiz ishtirok etmadi.

Tanlovning suhbat bosqichi Energetika vazirligi binosida ochiq muloqot shaklida bo‘lib o‘tdi.

Suhbat bosqichida Tanlov komissiyasi a’zolari tomonidan nomzodlarga tanlagan vakant lavozimi faoliyati bilan bog‘liq savollar berildi. Shundan so‘ng nomzodlarning javoblari o‘rnatilgan tartibda muhokama qilindi.

Komissiya a’zolarining tavsiyalarini ko‘rib chiqib va takliflarini inobatga olib, Tanlov komissiyasi **qaror qiladi:**

1. Vazirlik markaziy apparatining Elektr energiyasini ishlab chiqarish bo‘limi yetakchi mutaxassisi lavozimiga Saidkomil Saidakbar o‘g‘li Saidmurodov nomzodi ma’qullansin.

2. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (Z.Fayziyev) tanlangan nomzod bilan o‘rnatilgan tartibda mehnat munosabatlariga oid hujjatlarni imzolash va lavozimga tayinlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirsin.

3. Ushbu yig‘ilish bayoni ijrosini nazorat qilish vazir maslahatchisi D.Shukurov zimmasiga yuklansin.

| | |
|---|---|
| U. Mamadaminov | Z. Fayziyev |
| D. Shukurov | F. Sharipov |
| A. Raupov | R. Xakimov |
| S. Anvarov | |